Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024

№ 5

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 114 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari 10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybulla o'g'li

Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari 16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich

Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi 22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich

Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy 28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich

Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish 31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi

O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida 34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li

Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida) 40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li

Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export 46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna

O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari 49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari 54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi 57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich

Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari 61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi

Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari 68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich

Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish 72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich

Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar 77
A. I. Raxmatov

Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана 83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи

Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili 88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li

Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili 94
R. I. Pardayev

Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri 101
Raxmanova Xuriniso Egamovna

Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati 104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna

Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash 110
Nilufar Sharipova

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati 114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari 122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi

Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari 127
Davronbek Sharibjonovich Raximov

Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili 133
Aminov Farrux Farxadovich

Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari 138
G. J. Jumayeva

Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari 141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich

Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliini boshqarishdagi muammolar 146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna

Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari 149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich

Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish 158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li

Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash 164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna

Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана 168
Иноятова Камола Фуркатовна

Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni 172
X. X. Ikramov

Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari 176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li

Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida) 182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov

Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli 189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich

Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari 193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich

TURIZMNING MOHIYATI XUSUSIDA NAZARIY YONDOSHUVLAR VA ULARNING TAHLILI

R. I. Pardayev
SamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmning mohiyati xususida nazariy yondashuvlar, xorijiy va mahalliy olimlarning munosabatlari, ularning tahlili va rivojlanish holati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: global, iqtisodiyot, turizm, sayohat, daromad, aholi, bandlik, strategiya, turmahsulot, farovonlik.

Abstract: This article describes the theoretical approaches to the essence of tourism, the relations of foreign and local scientists, their analysis and the state of development.

Key words: global, economy, tourism, travel, income, population, employment, strategy, production, welfare.

Аннотация: В данной статье описаны теоретические подходы к сущности туризма, взаимоотношения зарубежных и отечественных ученых, их анализ и состояние развития.

Ключевые слова: глобальный, экономика, туризм, путешествия, доходы, население, занятость, стратегия, турпродукт, благосостояние.

KIRISH

Globallashayotgan hozirgi zamon jahon xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, turizm iqtisodiyotning eng tez rivojlanib borayotgan va yuqori daromad keltirayotgan istiqbolli tarmog‘iga aylandi. Turizmning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi rolini va istiqbollarini to‘g‘ri baholagan va undan unumli foydalanish zarurligini tushunib yetgan davlatlar, ayniqsa, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar, ushbu tarmoqni yuksaltirishga jiddiy e’tibor qaratmoqdalar. Bunday mamlakatlar turizmning ulkan imkoniyatlaridan unumli foydalanishga qaratilgan oqilona makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirmoqdalar va milliy iqtisodiyotni yuksaltirishda ibratli natijalarni qo‘lga kiritmoqdalar. Dunyoning ko‘pgina davlatlari aynan turizm yordamida katta miqdordagi valyuta tushumlarini amalga oshiradi va ushbu soha YAMMning shakllanishida yetakchi mavqega ega. Shunga mos ravishda, iqtisodiyot turkumidagi fanlarda turizmning nazariy-metodologik va kundalik amaliy muammolarini yechishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar soni ko‘payib, ko‘lami ham kengayib, sifati tobora yaxshilanib bormoqda.

2022-yilda turizm xizmatlari sohasining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 7,6%ni tashkil qilib, 7,7 trln. AQSH dollariga yetgan, shuningdek sohada bevosita va bilvosita 295 mln. kishi band bo‘lib, ushbu yilda sohada yaratilgan yangi ish soni 2,2 mln.tani tashkil etgan. Tadqiqotlar natijasi ko‘rsatdiki, agar O‘zbekistonda turizmdan keladigan daromadlarni yalpi ichki mahsulotdagi ulushi loaqal 10 foizga yetkazilsa, bu tarmoqda band bo‘lgan aholi soni 4866 ming kishini tashkil etadi. Aholi jon boshiga YAIM hajmi esa 784,2 ming so‘mga oshishi mumkin.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida turizm sohasini iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida jadal rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Turizm – bu ham investitsiya, ham eksport, ham yangi ish o‘rinlari va kambag‘allikni qisqartirish degani. Shuning uchun har bir hududda bu sohaga jiddiy e’tibor qaratib, ko‘proq sayyohlarni jalb etish kerak” [1], degan fikrlari turizm sohasiga ustuvor yo‘nalishdan biri sifatida e’tibor qaratish zarurligini belgilab beradi. Shuningdek, O‘zbekistonda 2026-yilgacha mahalliy sayyohlar soni-ni 12 million nafardan oshirish, respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish hamda turizm sohasida band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish maqsad qilib belgilangan. Shu boisdan, mamlakatda turizm xizmatlari sohasini jadal rivojlantirish asosida sifat mezonlarini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi imkoniyatlarini kuchaytirish masalalari bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon tadqiqotlarida turizm sohasida alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, hozirgi kunda rivojlangan davlatlar ilmiy tadqiqotlarida turizm sohasini ularning iqtisodiyotiga, ijtimoiy sohasiga, ekologiya va boshqa sohalarga ta'siri o'rganish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib bormoqdalar. Ushbu tadqiqotlarning asosiy mazmunida ijtimoiy kapitalning turizm yo'nalishida olib borilayotgan siyosatga mos tushadimi. Ushbu jumboqni ochib berishda bir nechta olimlar AQSH 3 ta shtati, Avstraliya va Okeaniya mamlakatlarida 74 qiziqish bildirgan tomonlar bilan tadqiqot o'tkazilgan. Ushbu tadqiqot natijasiga ko'ra ular o'zaro bog'liq bo'lib ijtimoiy kapitalning o'sishi turizm sohasini rivojlanishiga bilvosita ta'sir o'tkazishi asoslangan [2].

Ayrim olimlar tadqiqotlarida Maldiv orollarida dayving-turizmni rivojlantirish muhimligini asoslab beradilar. Ularning fikricha akulalarni ko'paytirish dayv-turizmga 58 mln. AQSH dollari foyda olib kelishini tadqiq etishgan [3].

Turizm sohasini rivojlantirishda turli texnologiyalarni joriy etish turistlarga qulayliklar yaratish imkonini berishi keltirib o'tilgan . Xitoylik olimlar tomonidan Xitoyda turizmning rivojlanishida mehmonxonalarni qurish, ularda xizmat ko'rsatish va qabul qilishda turli usullarni qo'llashda yangi innovatsion g'oyalardan foydalanish asoslari tahlil qilib berilgan [4]. Kujel Yu. o'zining darsligida turizm sohasini mamlakat ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirishdagi rolini ochib bergan. Bunda mamlakatning eng tez rivojlanadigan sohasi sifatida turizmga alohida e'tibor qaratish zarurligini keltirib o'tadi [5].

Rossiyalik olimlar N.Morozova va M.Morozovning fikriga ko'ra zamonaviy turizm industriyasi yangi kompyuter texnologiyalarini joriy etilishi bilan ulkan o'zgarishlarga ega bo'ldi. Har qanday tashkilotni turistik biznes bozorida zamonaviy axborotlar texnologiyasidan foydalanilmasdan muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi amaliyotda mumkin emas [6].

A.Abduvohidovning fikriga ko'ra, mamlakatimizda turizm salohiyatini dunyoga namoyon qilishda, xalqaro turistik oqimlarni barqarorlashtirish, uni mavsumiylik hususiyatlaridan xoli qilish maqsadida internet tarmog'i orqali turistik salohiyatimizni ko'rsatib beruvchi veb sahifalarni xalqaro tajribalar asosida o'zgartirib borish lozim [7].

Ko'rib o'tilgan mutaxassislarning fikriga ko'ra, turizm sohasini rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faoliyatini rivojlanishiga bevosita ta'siri yuqori ekanligi asoslab berilgan. Hozirgi kunda mamlakat turizm salohiyatini rivojlangan davlatlar foydalanayotgan innovatsion g'oyalar asosida hamda bizda mavjud bo'lgan turistik salohiyatdan foydalanish orqali dunyoga namoyon qilish zarur hisoblanadi.

TADQIQOT VA NATIJALAR

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti sezilarli darajada o'sdi, xalq moddiy faravonligi oshib, hayot sifati yaxshilandi. Natijada mamlakat aholisi nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari iste'moliga, balki dam olishga, uning sifatiga ham ko'proq e'tibor berishni boshladilar. Dam olishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida sayyohlik sanoati respublika iqtisodiyotining alohida istiqbolli va ustuvor tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, O'zbekiston ushbu sohani rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Shu sababli kelajakda mamlakatda sayyohlikning rivojlanish jarayoni yanada jadallashadi va natijada u iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanadi. Yuqoridagi fikr mulohazalarning to'g'riligini tahlil qilish maqsadida turizm ustun rivojlangan ba'zi davlatlarning turizmdagi bandlik ko'rsatkichlari natijalarini 1-jadvalda keltirib o'tdik .

1-jadval: 2020–2022-yillarda mamlakatlarning turizm sohasidagi bandlik ko'rsatkicharining o'zgarishi[1]

№	Mamlakatlar	Turizm sohasida band bo'lgan aholi soni (mln. kishi)			Turizm sohasidagi band aholining jami band aholi sonidagi ulushi (%)		
		2020	2022	o'zgarishi, %	2020	2022	o'zgarishi, %
1	Fransiya	2,4	2,6	108,3	8,6	9,0	104,6
2	Meksika	5,5	6,0	109,0	10,8	10,9	100,9
3	Ispaniya	2,3	2,5	108,6	11,9	12,7	106,7
4	Turkiya	2,1	2,4	114,2	8,0	8,4	105,0
5	Italiya	2,4	2,6	108,3	10,6	11,6	109,4
6	AQSH	9,7	10,5	108	6,6	6,9	104,5
7	Gretsiya	0,7	0,8	114,2	18,3	19,9	108,7
8	Avstriya	0,4	0,4	100,0	10,3	10,2	0,99
9	Germaniya	5,0	5,1	102,0	11,3	11,4	100,8
10	BAA	0,5	0,5	100,0	9,7	10,6	109,2

1 https://wttc.org/research/economic-impact (murojaat qilingan sana 14.05.2023 yil, soat 22:19)

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 2020-yilga nisbatan Gretsiya va Turkiya davlatlarining turizm sohasida band bo'lgan aholi soni boshqa davlatlarga qaraganda yuqori sur'atda (14,2 % dan) ko'paygani yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Bunga mutanosib tarzda turizm sohasidagi band aholining jami band aholi sonidagi ulushi ham mos ravishda 8,7 foiz va 5 foizga yuqorilaganini ijobiy baholash mumkin. E'tiborli jihati shundaki, butun jahonda ro'y bergan epidemiologik vaziyatdan keyin yuqori turistik salohiyatga ega Fransiya, Italiya va Germaniya davlatlarida ham bunday o'sish sur'ati kuzatilmagan.

Mamlakatimiz turizm sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlariga e'tibor bersak, kiruvchi tashrif buyuruvchilar soni 2022-yilda 16,5 mln. kishidan iborat bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 101,8 %ni tashkil etgan. Keyingi yillarda turizm strategik ahamiyatga ega soha bo'lganligi sababli 2022-yilda oilaviy mehmon uylari soni ham 3100 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 3,5 martaga oshgan. Respublikamiz YAIMda turizmning ulushi 2018–2022-yillarda 0,3 foizga kamaygan, buning asosiy sababi 2020-yilda butun dunyoda bo'lib o'tgan pandemiya tufayli turizm sohasidagi inqirozli holat hisoblanadi. Respublikamiz turizm sohasida band bo'lganlar soni tahlil qilinayotgan davrlar oralig'ida 37,0 %ga oshgan holda, ichki turizm 5,0 martaga o'sgan (2-jadval).

2-jadval: O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi[2]

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					2018–2022-yillarda o'zgarish, %
		2018	2019	2020	2021	2022	
1.	Tashrif buyuruvchilar soni jami, mln. kishi	16,2	17,7	4,6	6,2	16,5	101,8
2.	Kiruvchi turizm, ming kishi	5346,2	6748,5	1504,1	1881,3	5232,8	97,9
3.	Joylashtirish vositalari, birlik	916	1051	1156	1085	5010	5,5 марта
4.	Oilaviy mehmon uylari, birlik	-	106	886	897	3100	3,5 марта
5.	YAIMda turizmning ulushi, %	2,5	2,6	1,3	1,8	2,2	-0,3
6.	Turizm sohasida band bo'lganlar, ming kishi	201,0	260,1	201,3	215,6	275,3	137,0
7.	Ichki turizm, ming kishi	10854,5	10952,8	3069,2	4162,7	11300,7	104,1

Turizm, uning o'tmishi, bugungi holati, kelajakda rivojlanish istiqbollari bilan bog'liq barcha yo'nalishdagi, jumladan biz tanlagan mavzudagi, ilmiy-nazariy izlanishlar, avvalambor, "turizm" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Chunki ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarida aynan "turizm" tushunchasi boshqa barcha kategoriya va tushunchalarga nisbatan birinchi darajali va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, "turizm" tushunchasining tub mohiyatini to'la tushunib yetmasdan, unga atroflicha va to'liq ta'rif bermasdan turib, turistik xizmatlar hajmini baholab bo'lmaydi. Shuningdek, turistik xizmatlar bozorining holatini tadqiq etish, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, rivojlanish istiqbollarini prognozlashtirish "turizm" tushunchasining to'g'ri talqin etilishiga bog'liq. Turizmning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, aholi bandligi, daromadlari va boshqa muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash turizm sohasi to'g'risida aniq tasavvur va nazariy bilimlarning bo'lishini taqozo etadi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda, "turizm" tushunchasining mohiyatini ochishga alohida e'tibor qaratdik. Nazariy izlanishlar bugungi kunda "turizm" tushunchasining mohiyatini ochib berishga, unga mazmundor ta'rif berishga, turizmni turli belgilar asosida turlarga tasniflashga bag'ishlangan juda ko'p tadqiqotlar borligini ko'rsatdi.

Chet el adabiyotlarida olimlar "turizm" tushunchasini turlicha talqin qilishadi va eng muhimi ushbu tushunchaga nazariy qarashlar ancha ilgari, aniqrog'i XIX asr oxiri XX asrning boshlarida boshlangan. Turizmga birinchi va ancha keng ta'rif Bern universitetining professorlari K.Krapf va V.Xunziker tomonidan berilgan, desak to'g'ri bo'ladi keyinchalik ushbu tushuncha Xalqaro Turizm Ilmiy Ekspertlar Assotsiatsiyasi (XTIEA) tomonidan qabul qilindi. Ushbu olimlar turizmni sayyohlar safaridan kelib chiqadigan va doimiy yashashga olib kelmaydigan va hech qanday foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan bir qator hodisalar va munosabatlar sifatida talqin qilganlar[8]. Ushbu ta'rifda mualliflar nima uchun turizmni sayohatchilarning faqat "doimiy yashash"lari bilan bog'laganliklarining sabablarini ilmiy jihatdan asoslash qiyin bo'lsada, turizmga ilmiy ta'rif berishda olimlar ilk bor qo'lga kiritgan yirik muvaffaqiyat sifatida qabul qilish mumkin.

Nazariy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, "turizm" atamasi birinchi marta 1830-yilda V.Jekmo tomonidan qo'llanilgan bo'lib, fransuzcha "sayyohat" ma'nosini anglatadi. Turizmning hozirgi kundagi katta ahamiyati, unga tadqiqotchilar e'tiborining kuchayishi, xalqaro miqyosdagi rivoji va ko'plab xalqaro turistik tashkilotlarning tashkil etilishining natijasi sifatida "turizm" tushunchasiga har xil ta'riflarni uchratishimiz mumkin.

2 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

G‘arbda olimlarning turizm sohasiga qiziqishlari XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yanada kuchaydi. Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniyada turizmga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, olimlar tomonidan ilmiy maqola va asarlar yozilib, chop etildi.

Ilk marotaba Kurt Krapf turizm xususidagi ilk tadqiqotni Ye.Guyer-Feuler tomonidan 1895-yilda nashr qilingan “Beitraege zu einer Statistik des Fremdenverkehrs” (Turizm statistikasiga qo‘shilgan hissalar) bilan ro‘yobga chiqarilgani va shuningdek, 1883-yili o‘sha yozuvchining Syurixda nashr qilingan “Amteichter Bericht ubez das Schveizer Hotelvesen” (Shveysariya mehmonxonalari xizmatlari to‘g‘risida hisobot) nomli asariga taqriz berilgani, olimlarning turizmga bo‘lgan alohida qiziqishlarini tasdiqlaydi. Avstriyada ham turizmga nisbatan birinchi ilmiy qarashlar Graz (Graz) shahrida 1884-yil 13–14-martda bo‘lib o‘tgan “Delegiertentages Zur Forderung des Fremdenverkehrs in den Osterreichischen Alpen Laendern”, ya’ni “Avstriya Alp tog‘lari davlatlarida Turizm Delegatlari Kuni” yig‘ilishi muhokamalarida tilga olingan. Majlis ishtirokchilaridan biri yozuvchi Jozep Stadner muhokama natijalaridan ilhomlanib, keyinchalik turizmni iqtisodiy faoliyat sifatida ifodalaganligi va asoslab berganligi diqqatga sazovordir. Bundan tashqari, turizm ilmi haqida 1899 yilda Italiyada chop etilgan “Giornale degli Economisti” Iqtisodchilar jurnalida “Sul movimento forestieri in Italia”, ya’ni “Italiyada xorijiy harakatlar to‘g‘risida” nomli maqola chop etildi [9].

Milliy boylikni ko‘paytirish, inson turmush farovonligini yuksaltirish uchun keng imkoniyatlar paydo bo‘ldi. XIX asrga kelib sanoatning rivojlanish jarayoni keskin tus oldi, bu jarayonning foydasi bilan bir qatorda uning zararli tomonlari ham olimlar diqqatini jalb eta boshladi. Insoniyat ushbu jarayonlarning xavfli va zararli ta’sirlaridan himoyalanish uchun tabiatga va atrof muhitga yangicha munosabatda bo‘la boshladi. Shu tariqa insonlardagi sayohatga ehtiyoj va istak, atrof muhitga bo‘lgan qiziqish va jushqin munosabat yanada kuchaydi. Jozep Stadner 1884-yilda turizmni iqtisodiy faoliyat sifatida ifodalagandan so‘ng, turizmning iqtisodiy tomoniga ko‘proq urg‘u berib, bu xususda ilk bor o‘z fikrini bildirgan olim Xerman Von Shuller hisoblanadi. U turizmga shunday ta’rif bergan: “Boshqa bir o‘lkadan, shahar va hududdan ajnabiylarning kelishi va vaqtincha istiqomat qilishlari natijasida yuzaga keladigan harakatlarning barchasi – bu turizmdir” [10]. Oddiy, lekin aniq ifoda etilgan ushbu ta’rifda turizmning mohiyati to‘liq ochib berilgan bo‘lmasada, bizning nazarimizda, uning eng muhim xususiyati, ya’ni turizmning ajnabiylar tomonidan amalga oshirilgan va muayyan vaqt bilan (“vaqtincha”) chegaralangan ushbu va bunga o‘xshash barcha ta’riflarda turizmni faqat bir tomon, sayyohatchilarning hatti-harakatlari bilan bog‘lab ko‘rsatilishiga qat’iy e’tirozlarimiz bor.

Bizningcha, turizm umumlashtiruvchi kategoriya sifatida nafaqat turistlarning, balki ularga tegishli turistik xizmatlar taklif etuvchi va ushbu xizmatlarni amalga oshiruvchi ishchi-xodimlarning ham harakatlaridir. Demak, bizning nuqtayi nazarimizga muvofiq, turistlarning harakati bilan ularni qabul qiluvchi tomonning (ya’ni turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi ishchi-xodimlarning) harakatlari birgalikda qo‘shilib, turizmni yuzaga keltiradi. Bu yerda shuni ham alohida ta’kidlamoqchimizki, turizm jarayonidagi turistlarning hatti-harakatlari ularni qabul qiluvchi, ularga turistik xizmatlar ko‘rsatuvchi tomonning hatti-harakatlaridan o‘zining mazmun-mohiyati, maqsad va natijalari jihatidan tubdan farq qiladi. Turistlar, Xerman Von Shuller tilida, “ajnabiylar” harakatlari, sayohat qilish, turistik obyektlarni o‘rganish, ya’ni turmahsulotlarni iste’mol qilish evaziga naflilikka qaratilgan harakatlardir. Turistik xizmatlar bozorida turist iste’molchi sifatida turistik xizmatlarni xarid qiladi, ya’ni sotib oladi. Turistik xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar esa sotuvchi rolini bajaradilar. Ularning hatti-harakatlari xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida yangi qiymat va iste’mol qiymati yaratishga qaratilgan bo‘lib, uni iqtisodiy faoliyat sifatida talqin etish nazariy jihatdan ilmiy asoslangan, amaliy jihatdan esa o‘ta ahamiyatli deb hisoblaymiz.

Darhaqiqat, turizmning iqtisodiy faoliyat ekanligini isbotlashga ilk bor yevropalik olimlar harakat qilganlar. 1930-yillardan boshlab Angliyadagi iqtisodchi olimlar haqli ravishda turizmning iqtisodiy tomonlariga chuqurroq e’tibor qarata boshladilar. Bulardan tashqari, turizmning iqtisodiy jihatlariga ayrim sohalarga mansub olimlar ham katta e’tibor qaratganlar. Bulardan eng ko‘zga ko‘ringanlari Matio (Mathiot), Gluksmann (Glucksmann) va Krapf (Krapf)lardir. Bu olimlarning ta’riflariga ko‘ra, turizmning iste’mol funksiyasi o‘zga manzilda vaqtincha istiqomat qilish, sayohat va tunash joylari ham kiradi. Olimlardan, xususan, V.Xunziker (W.Hunziker)ning turizmga bergan ta’rifini, bu sohaning ilmiy poydevori deb hisoblash, “ajnabiylarning bir joyga qilgan sayyohatlaridan tarkib topgan va davomli istiqomat qilish, pul ishlashni maqsad qilmasdan, vaqtincha tunab qolishlaridan yuzaga keladigan munosabatlar majmui – bu turizmdir” [11]. Ushbu ta’rif mazmun-mohiyati jihatidan oldingilariga nisbatan ancha mukammal bo‘lib, unda turizm iqtisodiy munosabatlar majmui sifatida qaralganligi diqqatga sazovordir. Ammo olim, haqli ravishda, ushbu ta’rifning ham unchalik to‘liq emasligini shaxsan o‘zi e’tirof etgan. Biz olimning o‘z ilmiy yondashuvlariga nisbatan ushbu sog‘lom va ilmiy asosdan yiroq bo‘lmagan tanqidiy fikrlariga to‘la qo‘shilamiz.

Undan keyingi davrlarda ham iqtisodchi olimlarning turizmning mazmun-mohiyatini ochishga intilishlari yanada kuchayib bordi. 1954-yilda Italiyaning Palermo shahrida bo‘lib o‘tgan AIEST kongressida ishtirok etgan olimlar turizmga shunday ta’rif berishgan: “Turizm ajnabiylarning sayohati va bir joyda vaqtincha istiqomat qilishlaridan yuzaga keladigan voqea va hodisalar majmuidir. Bu jarayonda butunlay istiqomat qilishga va daromad olishni maqsad qilishga ruxsat etilmaydi” [12].

1976-yilda Britaniya instituti (hozirgi Turizm Tashkiloti) bu tushunchaga quyidagi mazmunda oydinlik kiritgan. “Turizm insonlarning kundalik istiqomat qiladigan va ishlaydigan joylaridan tashqari, chiroyli va ko‘rkam turizm markazlarini ziyorat qilishlari va u yerdagi faoliyatni ham o‘z ichiga olgan qisqa muddatli harakatlardir. Ayni vaqtda har xil bir kunlik marshrutli ekskursiyalarni ham o‘z ichiga oladi” [13]. Bizningcha, yuqorida qayd etilgan ta’riflarning bir-biriga nisbatan ayrim ziddiyatli jihatlari va ayni paytda o‘zaro o‘xshash tomonlari ham bor. Ushbu ta’riflarning ziddiyatli tomoni shundaki, birinchi ta’rifda ichki turizm tushunchasi tamoman e’tibordan chetda qolganligi bo‘lsa, ikkinchi ta’rifda ichki turizmga kuchli urg‘u berilgan. O‘xshash jihati esa ularda insonlarning dam olish, hordiq chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqib, sayyohlik faoliyatini shakllanishini asosli ravishda o‘zida aks ettirilganligi bilan izohlanadi.

Xerman Von Shuller turizmga dastlab bergan ta’rifidan so‘ng hozirga qadar katta tarixiy davr o‘tdi. Shu davr mobaynida turizmning mohiyatini ochib berishga qaratilgan jiddiy urinishlar natijasida unga berilgan ta’rif ham takomillashib bordi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti (aralash iqtisodiyot) “turizm” tushunchasining ta’rifiga yangicha metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Chunki zamonaviy bozor iqtisodiyoti turizm sohasida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkabligi, uning muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni shakllantirishda rolining benihoya oshib ketganligi, soha obyekt va subyektlarining kengligi, ya’ni ko‘plab yangi turizm turlarining paydo bo‘lganligi bilan o‘ziga xosdir. Turizmning kishilik jamiyatida tutgan o‘rni, uning iqtisodiyotdagi mavqei, ijtimoiy muammolarni hal etishdagi alohida ahamiyatidan kelib chiqqan holda, olimlarning ushbu iboraning talqiniga nisbatan qiziqishlari ham kuchayib ketdi. Natijada ushbu tushunchaning ta’rifi ham xilma-xil yondashuvlar hisobidan yanada boyib, kengayib hamda murakkablashib bormoqda.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “turizm” tushunchasini aniqlashga turlicha yondashuvlar mavjud. Ularning asosiylari V.A.Kvartalnov va I.V.Zorin [14] asarlarida batafsil ko‘rib chiqilgan. Adabiyotlarda keng tarqalgan nuqtai-nazarlarni tanqidiy o‘rgangan holda, ular turizmga quyidagi ta’rifni keltiradilar: “Sayyohlarning doimiy yashash joyidan sog‘lomlashtirish, rekreatsion, bilim olish yoki kasbiy tadbirkorlik maqsadlarida vaqtinchalik yashash joyida pullik xizmat faoliyati bilan bir yildan ortiq bo‘lmagan vaqt oralig‘ida bo‘lishi”. Turizmga berilgan ta’riflarning ko‘payib ketganligini inobatga olgan holda, rus olimasi A.Yu.Aleksandrova haqli ravishda, ularni ikkita katta guruhga bo‘lishni taklif qiladi:

Birinchi guruhga mansub ta’riflar tarmoqlararo, ya’ni turizm tomonidan muayyan vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan bo‘lib, huquqiy, boshqaruv, statistik hisobot, ijtimoiy siyosat sohasida ishlatiladi.

Ikkinchi guruh ta’riflari esa konseptual asosga ega bo‘lib, birinchi guruh uchun xizmat qiladi va turizmning ichki mazmunini aks ettiradi [15].

Xorijiy mutaxassislar “turizm” tushunchasini tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan qarashi diqqatga sazovor (1-rasm). Masalan, Shveysariyalik olim K.Kasparning so‘zlariga ko‘ra, turizm tizimining asosida ikkita kichik tizim mavjud: turistik subyekt va turistik obyekt, shuningdek, turistik obyekt uchta elementdan tashkil topgan: turistik hudud, turistik korxonalar va turistik tashkilotlar.

1-rasm: Turizm modeli tizim sifatida[3]

“Turizm” tushunchasini tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilgan AQSHning Meysen universiteti professori N.Leyperning konsepsiyasini alohida ajratish maqsadga muvofiq. U turizmni quyidagi asosiy elementlardan tashkil topgan tizim deb hisoblaydi: geografik komponentlar, turistlar va turizm industriyasi.

O‘zbekistonda ham keyingi yillarda turizmga bag‘ishlangan tadqiqotlar tobora kengayib bormoqda. Shu jihati e’tiborliki, mahalliy iqtisodchi olimlarimiz ham turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va metodologik muammolari, O‘zbekistonda turizm salohiyati, ulardan samarali foydalanish yo‘llari, turizmni rivojlantirishning hududiy muammolari va o‘ziga xos xususiyatlari borasida bir qator ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar. Mahalliy olimlarimiz o‘z tadqiqotlarida “turizm” tushunchasining mohiyatini ochishga ham jiddiy e’tibor qaratishmoqda. Masalan, iqtisodchi olimlardan M.Q.Pardayev va D.X.Aslanovalar turizm tushunchasiga quyidagicha izoh keltirganlar. Turizm iqtisodiy kategoriya bo‘lib, davlatlar kelgan turistlarga mahalliy xizmatni sotadi, o‘z ishchilariga ish joy sharoitini yaratadi, kirib kelayotgan valyutadan daromad oladi. Tor ma’noda turizm sohasi

3 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

o‘zida bir tomondan turistlarga bevosita xizmat qiluvchi tarmoqni taklif qiladi, ikkinchi tomondan, keng ma’noda, turizm bozoriga yo‘naltirilgan xizmat qilish va moddiy ishlab chiqarish kabi bir-biriga qo‘shilgan tarmoqlarning o‘zaro bog‘langan tizimini belgilaydi. “Turizm – bu ishlab chiqarish va iste’molning yakdil jarayonidir” [16].

O‘zbekistonda turizm salohiyati va uni rivojlantirishda davlat siyosati xususida professor G‘.H.Qudratov o‘z tadqiqot ishlarini olib borgan. Iqtisodchi olim turizm va turistik industriyani innovatsion asosda rivojlantirish, turistlarning haq-huquqlarini ta’minlash, mavjud turistik resurslardan oqilona foydalanish, sohaga taalluqli normativ bazani takomillashtirish, bolalar, yoshlar, nogironlar va aholining kam ta’minlangan qatlamlari turizmi uchun shart-sharoitlar yaratish, turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish siyosati, kadrlar, tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun turistik xizmatlar bozorida keng imkoniyatlar yaratishning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib bergan.

Prof. I.S.Tuxliyev o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida turizmning zamonaviy belgilari, turistik oqim yo‘nalishi, maqsadi, harakatlanish usuli, turistlarni joylashtiruv vositalari va ishtirokchilari soni bo‘yicha tashkiliy-huquqiy shakllarini tasniflash maqsadga muvofiqligini asoslab bergan. U turistik xizmatga quyidagicha ta’rif bergan: “Turistik xizmat turistlarni mos ravishdagi ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha turistik korxona faoliyati natijasi hisoblanadi”. Shuningdek, boshqa barcha xizmat turlari kabi turistik xizmatlar o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanishini, bular shartli ravishda “uchta S” bilan belgilanishini izohlab bergan. Bu xususiyatlar sezilmaslik, servis va saqlanmaslikdan iboratdir.

Iqtisodchi olima D.X.Aslanova o‘z tadqiqotlarida turizm sohasi va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, aniqrog‘i, globallashuv jarayonlari va ularning turistik xizmatlar bozoriga ta’sirini, Samarqand viloyati misolida turizm sohasining rivojlanish omillarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Olimaning tadqiqotlaridan olingan natijalarga muvofiq, jahonda globallashuv jarayonining chuqurlashuvi va ilmni ko‘p talab qiluvchi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishning ustun rivojlanishi sharoitida har qanday mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va aholi turmush sifati oshishining zaruriy sharti innovatsion faollik bilan belgilanadi. Innovatsion faollik, o‘z navbatida, davlatning iqtisodiy va ilmiy-texnik imkoniyatlari, uning innovatsiyaga oid siyosati va salohiyati, shuningdek, jamiyatning ma’naviy holatiga bog‘liq. Bu borada xalqaro turizm xizmatlar bozorining rivojlanish tendensiyalari, jumladan, sohadagi innovatsion rivojlanishga alohida e’tibor qaratilayotgani ahamiyatga molikdir [17].

Iqtisodchi B.Sh.Safarov o‘z tadqiqotida milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borib, mamlakatimizda turizm cohasini rivojlantirishda turizm xizmat bozoriga oid tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini innovatsion rivojlanish talablaridan kelib chiqqan holda tadqiq etish, turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik va uslubiy yondashuvini takomillashtirish, turistik-rekreatsion klaster modelini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini asoslash hamda iqtisodiy-tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratgan [18]. Lekin yuqorida ishlari zikr etilgan olimlar ilmiy izlanishlarining natijalarini o‘rganish, turizmni aynan innovatsion rivojlantirishda investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari e’tibordan chetda qolib ketganligini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 830-I-sonli “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunida turizmga quyidagicha: “Turizm – jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi)” [19] deb ta’rif berilgan. Bizningcha, ushbu ta’rifning turizmni faoliyat nuqtayi nazaridan huquqiy, iqtisodiy jihatlarini to‘liq ochib berganligiga qaramasdan, tizimlilik jihatidan zaif tomonlari mavjud. 2019-yil 18-iyulda O‘RQ-549-sonli “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririda turizmga quyidagicha ta’rif berilgan: “Turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo‘nab ketishi (sayohat qilishi)” [20].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida, o‘rganilgan xorijiy tajriba, egallangan nazariy bilimlar hamda bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish natijasida ishlab chiqilgan quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

Yuqorida bayon etilgan ilmiy qarashlarni o‘rganish va ularga iqtisodiy yondashish, turizmga berilgan ta’rifning mazmunini yanada boyitish maqsadida, unga quyidagicha ta’rif berishni lozim topdik:

- turizm –sayyohlarning va ularga turistik xizmatlar ko‘rsatuvchilarning turistik xizmatlar jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarga asoslangan faoliyatdir;
- turizm shaxslarning doimiy yashaydigan, ishlaydigan va muhim ehtiyojlarni qondiradigan joylardan xorijiy mamlakatga qilinadigan ziyoratdir;
- turist uchun tunash – vaqtinchalik, cheklangan zaruriyat. Sayyohatga chiqqan va tunab qolgan norezident ma’lum vaqt oralig‘ida o‘zi yashaydigan manziliga qaytishga majbur;

- turizm va sayohat yoki sayyoh tushunchalari o‘rtasida keskin farq va tafovut mavjud. Iqtisodiy kategoriya sifatida ushbu tushunchalar o‘ziga xos umumiylik va xususiyliklik belgilariga ega;
- turizm sohasi milliy iqtisodiyotning alohida tarmog‘i sifatida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, uning mahsuloti muayyan turdagi xizmatlardan foydalanishga beriladigan xuquq bo‘lib, bu xizmatlarning o‘zi esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yaratiladi. Masalan, turizm sohasining milliy iqtisodiyotga ko‘rsatgan ijobiy ta’siri u faqat har tomonlama rivojlangandagina namoyon bo‘ladi, ya’ni turizm sohasining samaradorligiga uning mamlakatdagi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlar bilan parallel ravishda va o‘zaro aloqada rivojlanishi natijasida erishiladi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash lozimki, turizm qisqa tarixiy davr mobaynida jahon xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi va u yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta’minlash, daromadlarini oshirish va turmush farovonligini yuksaltirishda munosib hissa qo‘sha boshladi. O‘zbekiston ham ulkan turistik salohiyatga ega bo‘lib, mamlakatda keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar doirasida ko‘zda tutilgan borqaror iqtisodiy o‘sishda salmoqli hissa qo‘shishi mumkinbugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va davlat tomonidan huquqiy tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi. Mazkur sohani rivojlantirish maqsadida tadbirkorlarga juda katta imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berilganligi soha rivojining asosiy omili bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda ba’zi bir kamchilik va foydalanilmayotgan imkoniyatlar borki, ularni bartaraf etish va bu yo‘lda rivojlangan xorijiy davlatlarning ijobiy tajribalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 19-sentabr kuni mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. https://kun.uz/50683122 (murojaat qilingan sana: 28.11.2022)
2. Joelle Soulard, Whitney Knollenberg, B. Bynum Boley, Richard R. Perdue, Nancy Gard McGehee. Social capital and destination strategic planning //International Journal of Tourism Management. Pages 1-604 (December 2018) pp.189-200.
3. Johanna S. Zimmerhackel, Abbie A. Rogers, Mark G. Meekan, Khadeeja Ali, ... Marit E. Kragt. How shark conservation in the Maldives affects demand for dive tourism//International Journal of Tourism Management. Pages 1-604 (December 2018) pp.263-271.
4. Yumi Park Kim, Soyoung Boo, Hailin Qu . Calculating tourists’ customer equity and maximizing the hotel’s ROI //International Journal of Tourism Management. Pages 1- 604 (December 2018) pp.408-42.
5. Barnabé Walheer, Linjia Zhang . Profit Luenberger and Malmquist-Luenberger indexes for multi-activity decision-making units: The case of the star-rated hotel industry in China //International Journal of Tourism Management. Pages 1-604 (December 2018) pp.1-11.
6. Кужеля Ю. Л. Туризм и гостеприимство. Учебник: М.: Издательство Юрайт, 2018. – 439 с. 9. 6.Морозова Н., Морозов М., Информационное обеспечение туризма. Учебник. Москва, КноРус, 2016, 7 с.
7. Abduvoxidov A.A. O‘zbekiston turizm industriyasini rivojlantirishda kompyuter tizimlarini takomillashtirish istiqbollari, O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda xorijiy tajribani qo‘llash respublika ilmiy amaliy anjumani maqolalar to‘plami, 2014, 392-393 b.
8. Понятия, функции и цели туризма. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: // https://studopedia.su
9. Tunca Toskay, Turizm Olayina Genel Yaklasim, 3- Basim, Der Yayinlari; № 26, Istanbul, 1989. − S.20.
10. Tunca Toskay, Turizm Olayina Genel Yaklasim, 3- Basim, Der Yayinlari; № 26, Istanbul, 1989. − S.20.
11. Walter Hunziker, Un Siecle de Tourisme en Suisse, Berne, 1947. P.11.
12. J.Christopher Holloway., The Business of Tourism, Third edition, Pitmen Publishing Ltd, London, 1989. P. 9.
13. J.Christopher Holloway., The Business of Tourism, Third edition, Pitmen Publishing Ltd, London, 1989. P. 9-10.
14. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма: справочник. – М.: Финансы и статистика, 2014. – 368 с. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: // https://e.lanbook.com/book/69240;
15. Кусков А.С., Джаладян Ю.А.. Основы туризма: Учебник. – М.: КНОРУС, 2015. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: // https://www.litres.ru
16. Pardayev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari, Monografiya, T.: Iqtisodiyot-moliya, 2008.− B. 58-59.
17. Muxammedov M.M. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. Monografiya. – Sam.: Zarafshon, – 2017. − B.181-200.
18. Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish. DSc dissertatsiyasi avtoreferati. – Sam., 2017. – 78 b.
19. O‘zbekiston Respublikasining 830-I-sonli “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. 1999-yil 20-avgust. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz/docs/75355
20. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-549-sonli “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 18-iyul. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz/docs/4428907

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.